



**Erkinoy MAMAJONOVA,**  
Andijon davlat tibbiyot instituti tadqiqotchisi  
E-mail:erkinoy@mail.ru

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, p.f.d B.S.Abdullaeva taqrizi asosida

## METHODOLOGOK FUNDAMENTALS OF TEACHING BIOPHARMACY IN MEDICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

### Annotation

This article will talk about the need for training, methodological basis in pre-existing medical higher education institutions. Why training methods are needed in the occupation of the shahs, in developed countries it is about the work being carried out on the Soha, and about the resistance to shaming in future doctors.

**Key words:** Student, medical higher education institution, biopharmacy, developed countries, modern information technology, mediacompetence, knowledge, qualifications, skills.

## МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОФАРМАЦЕВТИКИ В МЕДИЦИНСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

### Аннотация

В данной статье речь идет прежде всего о необходимости, методической основе преподавания в медицинских высших учебных заведениях. В нем говорится о том, почему методы обучения необходимы человеку для получения профессии, о текущей работе в этой области в развитых странах и о важности формирования у будущих врачей.

**Ключевые слова:** Студент, медицинское высшее учебное заведение, биофармация, развитые страны, современные информационные технологии, медиакомпетентность, знания, умения, навыки.

## TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BIOFARMATSIYA FANINI O'QITISHNING METODOLOGOK ASOSLARI

### Annotatsiya

Mazkur maqolada avvalom bor tibbiyot oliy ta'lismuassasalarida o'qitish zarurati, metodologik asosi haqida so'z boradi. O'qitish metodlarini shahs kasb egallashida nima uchun kerakligi, rivojlangan mamlaktlarda bu soxaga olob borilayotgan ishlar va bo'lajak shifokorlarda shakillantirish muximligi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Talaba, tibbiyot oliy ta'lismuassasasi, biofarmatsiya, rivojlangan mamlakatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, mediakompetentlik, bilim, malaka, ko'nikma.

**Kirish.** Mamlakatimizda milliy tibbiyot va farmasevtika ta'lmini modernizasiya qilish, ushbu sohaga xalqaro ta'lism standartlarini joriy etish, aholi salomatligini muhofaza qilishning dolzarb muammolari bo'yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borilmoida. 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda 2019 - 2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiysi: "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada takomillashtirish, uning amaliy sog'liqni saqlashga integrasiya qilinishimi ta'minlash, bo'lajak shifokorlarning metodik tayyorgarligi, bu jarayonni tashkil etish texnologiyasi, metodik ta'minoti, faoliyatga oid kompetensiyalar tizimi va mexanizmlarini takomillashtirish hamda tibbiy yordam ko'rsatish darajasini oshirish" vazifalar ustivor etib belgilandi.

Mustaqillik yillarda ta'lismuassasida olib borilgan keng ko'lamli islohotlar tibbiyot oliy ta'lismuassasalarini zamonaviy o'quv laboratoriya jihozlari bilan ta'minlah, o'quv dasturlari, o'quv metodik adabiyotlarni xalqaro talablariga mos holda yangilash, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Olib borilayotgan amaliy ishlardagi yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lismuassasalarini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida: "...xalqaro tajribalardan kelib chiqib, o'quv jarayonlarini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajriba asosida zamonaviy ta'lismuassasalarini takomillashtirish..." vazifasi pedagogik zarurat sifatida belgilandi. Elektron darsliklar, virtual ta'lismuassasalarini takomillashtirish vazifasi belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, tibbiyot oliy ta'lismuassasalarida o'quv

jarayonida keng foydalanish orqali talabalarning mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirilishi xamda faoliyat sohalari bo'yicha talabalarga innovatsion ta'limga berish, kasbiy ko'nikma va malkalarini doimiy takomillashtirib borish mediakontentlardan ta'limga jarayonida foydalangan xolda mediakompetensiyalari zamonaviy mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoida.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 30-aprel kuni ta'lismuassasalarida sifatga e'tibor qaratish, bitiruv va kirish imtihonlarini tashkil etish masalalari muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishida vaziyatga qarab, o'quv yuklamalarini va dasturlarni qayta ko'rib chiqish, oliy o'quv yurtlarida amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish lozimligi, shuningdek, zerikarli ma'ruzalar o'qish, konspektlar yozdirish kabi o'zini oqlamagan usullardan voz kechib, ta'limga metodikasini rivojlantirish va pedagoglar saviyasini oshirish g'oyat muhim masalaligi ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston xalqiga 2020-yil 24-yanvar kuni yo'llagan Murojaatida oliy ta'lismuassasalarida 2020-yildagi asosiy vazifalar belgilangan. Bular: ta'lism standartlarini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish; ta'lism yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlarni qayta ko'rib chiqish; mutaxassislikka aloqasi bo'lмаган fanlar sonini ikki barobar qisqartirish; o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazish; pedagogik ta'limga 6 ta yo'nalishi bo'yicha o'qish muddatini 3 yil qilib belgilash; tibbiyot oliy ta'lismuassasalarida klinik fanlarning fundamente bo'lgan umumklinik fanlarni o'qitish metodlarini takomillashtirish vazifasi belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, tibbiyot oliy ta'lismuassasalarida o'quv

o'qitiladigan umumklinik fanlardan biofarmasiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish dolzarb vazifa kasb etadi.

Biofarmasiya - bu dori vositalarining inson organizmiga biologik ta'siri, ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari, dori vositalarining shakli, tayyorlash va qo'llash usullarini o'rgatadigan fandir. "Biofarmasiya" - texnologiyaning nazariy asosi bo'lib, birinchi marta farmsasiyada XX asrning 60-yillardan qo'llanila boshlandi. Adabiyotlardagi malumotlarga qaraganda, biofarmasiya atamasini birinchi marta 1961 yilda AQSh olimlari Levi va Vagnerlar ishlatsishgan. Bu atamaning aniq va to'liq ifodasi 1972 yilda Amerika farmasevtika assosiasiyanining ilmiy farmasevtika Akademiyasi tomonidan keltiriladi. Bunga binoan biofarmasiyaning asosiya vazifasi dorilarning inson organizmiga biologik faolligiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni o'rganish va shunga binoan ularning terapevtik unumdorligini oshirish va qo'shimcha ta'sirini kamaytirish bilan shug'ullanadi. Ko'rinish turibdiki, biofarmasiya yangi rivojlanayotgan fanlardan biri xisoblanadi. Aslida qadim zamonlardayoq dorilarning terapevtik unumdorligiga ta'sit etuvchi ayrim omillarni ma'lum bo'lgan. Jumladan, Gippokrat (eramizdan oldingi 460-370 yillar) dorilarning faolligi uning turiga va tayyorlash jarayoniga bog'liqligini, Galen (130-200-yillar) va Ibn Sino (980-1037-yillar) esa maydalik darajasiga ham bog'liqligini amaliyotda isbotlaganlar. Demak, bundan 3-5 ming yillar ilgariyoq biofarmasiya omillari o'rganila boshlangan. Ibn Sino bu omillarga asoslanib, dori haqidagi o'z bilimlarini nazariy asoslarini va atamalarini yaratdi. U odamning mijozni va dorilarning xususiyatlari qarab, ularni terapevtik unumdorligini oldindan aytib bera olgan. Dorilarni Ibn Sino ikki qismidan tashkil topgan deb qaragan:

1-ta'sir etuvchi, 2-yordamchi moddalar. Yordamchi moddalar sifatida: to'diruvchi, bog'lovchi, yumshatuvchi, qovushqoqligini oshiruvchi turg'unlashtiruvchi moddalar, noxush xidni va mazasini yaxshilovchi, ta'sirini uzaytiruvchi, qoplovchi kabilardan foydalangan. Ko'pincha shu maqsad uchun asal ishlatalgan. Chunki asalni Ibn Sino "hamma dorilarning toji" deb atagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, "biofarmasiya" tushunchasiga amerikalik olimiar Levi va Vagner emas, vatandoshimiz Ibn Sino asos solgan. Lekin "biofarmasiya" atamasini yuqorida nomlari qayd etilgan olimlar qo'laganligi tufayligina ularni biofarmasiya asoschisi deb qarash noo'rindir. Dori turi tanaga tushganda murakkab jarayonlarga duch keladi, so'ng o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu jarayon bosqichlarining quyidagi soddalashtirilgan tasvirini keltirish mumkin:

Dori turi. Dori so'rilgan joyidagi biosuyuqlikda Qonda yoki to'qimalarda dori modda (yoki uning parchalangan qismlari) Dorilarning oshqozon-ichak yo'li, buyrak, o'pka, teri bezlari orqali ajralishi.

Birinchi bosqichda qabul qilingan dori turidan biofaol moddaning ajralib chiqishi va kerakli a'zoga borib so'riliq gacha bo'lgan jarayonlar kiradi.

Ikkinci bosqichda biosuqlikka o'tgan dori diffuziya qonunlariga binoan so'rildi. Diffuziya kinetikasiga farmasevtika va fiziologik omillar ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, spirit faolligi, texnologik jarayon, dori turining suyuqlikda erishi, parchalanish va hokazolar. Diffuziya kinetikasiga to'qima membranasining xususiyati va holati, to'qimalarning ferment faolligi kiradi. Dorilarning so'riliishi bemor yoshi, jinsi, tana holatiga bog'liq bo'ladi.

Uchinchi bosqichda fiziologik omillar asosi o'rinn tutadi, ya'ni dorilar yoki uning metabolitlari tanada (qonda, to'qimada) taqsimlanadi.

To'rtinchchi bosqichda dorilarning tanadagi xarakatida asosi biokimyo omillari kuzatiladi. Bunda dorilar yoki ular metabolitlarining biosuqlikdagi xarakati va ajralib chiqishi sodir bo'ladi. Dorilarning tanaga so'riliш tezligiga farmasevtik omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Bu omillarga dorilarning kiyoviy va fizik xolatlar, yordamchi moddalar, dori turi va uni qabul qilish yo'llari va farmatexnologik jarayonlarning ta'siri kiradi.

Yuqorida keltirilgan omillarni mujassam xoldida o'rganish dorilarning tanaga kiritilishi, uning xarakati va ta'sir qilishi

biofarmasiyaning asosi xisoblanadi. Demak, biofarmasiya fanining asoschisi Ibn Sino bo'lsa, fanning metodologik asosini esa uning "Tib qonunlari" nomli mashhur asari xisoblanar ekan. Biofarmasiya asosan farmakognoziya va dorilarni tayyorlash texnologiyasining boshlanishi odamzot madaniyati paydo bo'lishi davri binal chambarchas bog'langan. Bugun dunyoda tibbiyot va farmsasiyaning taraqqiyotiga Ibn Sino o'zining g'oyat katta ta'sirini o'tkazgan. Bundan 10 asr burun, Ibn Sino yashab, faoliyat ko'rsatgan davrda mustaqil farmasevtik xizmat bo'lмаган, u tabiblikdan endigina ajralib mustaqil ravishda shakllana boshlagan edi. Keyinchalik reseptlar tarkibi va ularni tayyorlash texnologiyasining murakkablanishi hamda murakkab dorilarning yangi turlarini hakimlar (yoki tabiblarning bir o'zi bajarish qiyin bo'lib qoldi. Natijada dorilar tayyorlash uchun tibbiyot xodimlari ichidan ayrim maxsus shaxsni tayyorlashga to'g'ri kelgan. Shunday qilib farmasevtik (dorishunos) mutaxassisligi paydo bo'lgan

**Tadqiqotda qo'llanilgan usullar.** Tajriba-sinov ishini tashkil etishda birinchi navbatda talabalarning darsga psixologik jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya'ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so'ng darsda ko'rgazmali organayzerlar, ko'rgazmali demonstratsion makteklar va tarqatma materiallardan foydalaniб, klaster va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ibn Sino o'zining farmasevtika masalalariga oid fikrlarini buyuk asari bo'lmish "Tib qonunlari"ning ayrim kitoblarida bayon etgan. Hamma davrlarda taniqli hakim va tabiblarning asosiya dorivor vositalari, avvalo, dorivor o'simliklar va ularning ayrim qismlari ham mahsulotlari bo'lgan, ikkinchi o'rinda hayvonlar va ularning mahsulotlari, keyin mineral moddalar bo'lgan. Ulardan shifokorlik maqsadida foydalanan jarayonida turli muammolar vujudga kelgan. Masalan: dorivor mahsulotning sifati to'g'risida yoki ulardan dorilarni tayyorlash va boshqalar. Bu muammolar hakimlar va tabiblar tomonidan o'zlarining katta tajribalariga hamda kuzatishlariga asoslangan holda qilingan. Dorivor o'simliklar mahsulotlarini sifatlilagini aniqlash farmakognostik tahlil sohasi, ulardan to'g'ri va sifatlari dori turlarini tayyorlash esa dorilar texnologiyasining sohasidir. Bu ikkala fan ham farmasevtika fanlari bo'lib, boshqa tibbiyot fanlaridan X-XI asrda ajralib chiqqan[42] Ibn Sino "Tib qonunlari" kitobida murakkab dorilar reseptlarini to'liq va mukammal ravishda asoslab bergan va bu to'g'risidagi fikrlar mazkur kitobning boshqa qismlarida ham bayon etilgan. Hozirgi zamonda biofarmasiya fani doimo dorilar tayyorlash texnologiyasini mukammallashtirish muammolari bilan shug'ullanib keladi. Bu fanning metodologik asosini esa yuqoridagi manbalar tashkil qiladi.

Har qanday tadqiqotchi muayyan mavzuda ilmiy izlanish olib borar ekan, eng avvalo, ma'lum metodologiyaga tayanadi va o'z maqsadini amalga oshirish uchun qo'l keladigan ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanadi. Inson doimo ma'lum maqsad sari harakat qiladi. Uning bu harakatining natijasi harakat qiluvchi sub'ekt va harakat yo'nalgan ob'ektning qanday bo'lishidan tashqari, mazkur faoliyatda qanday usullar qo'llanilishi bilan uziyi bog'liqdir. Bu esa bilih jarayoni muayyan metodologiya va metodga tayanish lozimligini ko'rsatadi [3]. Biofarmasiyaning o'rganishda metod va metodologiyaning ahamiyati juda katta. F.Bekon metodni zulmatda yo'lni yoritib turuvchi mash'alaga qiyoslaydi. Muayyan muammoni adashgan (yolg'on) yo'l bilan ijobji hal qilib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Shuning uchun har qanday tadqiqotchi bilish quroli bo'lgan va insonga tabiat ustidan hukmronlik qilishni ta'minlaydigan tadqiqot metodiga ega bo'lishi kerak. F.Bekon ana shunday metod sifatida induksiyani tanlaydi. Bu metod fandan empirik tahlilga, kuzatish va eksperimentga tayanishni, shu asosda sababiyat va qonunlarni anglashni talab qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rniда shuni aytib o'tish joizki, farmatsiev uchun metodologiya kasbiy so'nish muammosini bartaraf etish uzoq muddatli jarayon bo'lib, muntazam ravishda o'z-o'zini tahlil qilish va ehtiyojlari mos ravishda choralar ko'rishni talab qiladi. Shuningdek, tibbiyot tashkilotlari ham shifokorlarning ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratishlari zarur.

## ADABIYOTLAR

1. Worsnop, C.M. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy, 60p.
2. Malaxovskiy V. Tanish va notanish raqamlar. – Kalinigrad: FGUIPP, 2004.
3. Buxarkina M., Mosiyeva V. Ta'llim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari. – M., 2000. 3.
4. Соловьев Ю. И. Эволюция основных теоретических проблем химии.— М.: Наука, 1971, 380 с.
5. Ijtimoiy hukumat portal: www.Ziyonet.uz.
6. <http://www.school.edu.ru> Umumta\_lik portali (rus tilida) Бермус А.Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании. [www.eidoc.ru](http://www.eidoc.ru). 2005, 09